

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI⁹⁹

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

FE'L SO'Z TURKUMINI AKT ORQALI BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA
O'RGATISH USULLARI

Axmadjonova Mohinur Bahodirovna

Yuksalish xususiy maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

axmadjonovamohinur492@gmail.com

+99894 947-59-55

Miqdor tushunchasi keng ma'noli tushuncha hisoblanadi. Deyarli hamma sohada ushbu so'zga
duch kelishimiz mumkin.

Miqdor tushunchasi o'zbek tilida murakkab satxli makromaydon hosil qilib, o'zaro uzviy
bog'langan uchta maydondan iborat:

1. Mavjudot son-miqdor maydoni.
2. O'lchov-miqdor maydoni.
3. Harakat-miqdor maydoni.

Binobarin, son-miqdor juda kichik maydon bo'lib, miqdor makromaydonining uchdan bir
qismini tashkil qiladi.¹

Fe'llardagi miqdorlar harakat va holatni bildiruvchi fe'llarda hamda shaxs-sonni anglatuvchi
qo'shimchalarda mavjud deb olishimiz mumkin.

Quyidagi jadvalda ushubu holat yoritilgan:

"Miqdor sanaluvchi fe'llar."

Nº	Fe'lning nomi	Birlik	Ko'plik
1	Ko'paymoq		+
2	Kamaymoq	+	
3	Pasaymoq	+	
4	Balandlamoq		+
5	O'smoq		+
6	Ko'tarilmoq		+

"Fe'llardagi shaxs-son qo'shimchalaridagi miqdor"

Nº	Qo'shimcha	Birlik	Ko'plik
1	-m, -man	+	
2	-ng, -san	+	
3	-miz, -imiz		+
4	-ngiz, -ingiz		+
5	-sizlar, -sanlar		+
6	-siz, -ngiz, -ingiz, -ng, -ing	+	+

Yuqorida keltirilgan miqdor sanaluvchi shakllar faqat harakatga nisbatan olinadi.
Ammo bu fe'llar yasama fe'llar hisoblangani uchun fe'llarning o'zagi boshqa so'z
turkumlarning miqdorini anglatadi.

Misol uchun: ko'paymoq fe'li- ko'p-ay-moq qismlariga bo'linib, uning negizi ko'p
so'zi ravish so'z turkumiga tegishlidir yoki pasaymoq va balandlamoq fe'llari esa, past-ay-moq,
baland-la-moq shakllda morfemik qismlarga bo'linib, past hamda baland so'zlari sifat so'z
turkumining miqdor sanaluvchi shakllari hisoblanadi.

Shaxs-son qo'shimchalaridagi miqdor bajaruvchiga qarab aniqlanadi chunki bajaruvchi
bir yoki ikki kishidan yoki undan ham ko'p kishidan iborat bo'lishi mumkin. Fe'llardagi mayl

¹ Сафаров Ф.Ўзбек тилида сон-микдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий
хусусияти.filaol.fan.nom.diss.Самарканд - 2004

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹⁰⁰

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

hamda zamon qo'shimchalari ham huddi shunday, ya'ni bajaruvchiga qarab miqdorni belgilash mumkin.

Fe'llardagi miqdor so'zlani AKTda bolalarga "Birgalikda o'ynaymiz" o'yini orqali ham tushuntirishimiz mumkin:

O'yinda Simba ismli sherga do'stini topishda yordam berish kerak bo'ladi. Buning uchun esa, o'quvchilar taqdimotda berilgan shartlarni bajarishlari kerak. Agar berilgan savolga to'g'ri javob berishsa, barakalla degan yozuv chiqadi. Agar savolga noto'g'ri javob berilsa, o'ylab ko'ring yoki noto'g'ri degan javob chiqadi.

Quyida keltirilgan "Baliqlarni birga ovlaymiz" metodi orqali o'uvchilarga fe'llardagi miqdorni anglatuvchi shaxs-son qo'shimchalarini mustahkamlab olishlari mumkin bo'ladi.

"Baliqlarni birga ovlaymiz" nomli o'yin shaklidagi taqdimotda o'quvchilarning shaxs-son mavzusiga oid bilimlarini sinovdan o'tkazish mumkin. O'yin qoidasi:

- Berilgan savolga to'g'ri javobni tanlang;
- Javobingiz to'g'ri bo'lsa, baliq qarmoqqa ilinadi;
- Javobingiz noto'g'ri bo'lsa baliq ko'lga suzib ketadi.

Bu o'yinda tanlangan rasmlar ham boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun juda mos hamda ular uchun qiziqarli bo'ladi.

"Mallavoyni bo'ya" interfaol o'yini. Ushbu o'yinda o'quvchilardan savollarga to'g'ri javob berib, rasmni bo'yash talab etiladi.

O'yin qoidalari:

1. Shaxs-son qo'shimchalarini birlik yoki ko'plik qochimchalarga to'g'ri ajrating.
2. Savollarga to'g'ri javob berilsa, mushukvoyning qaysidir qismi bo'yaladi.
3. Noto'g'ri javob berilsa, bo'yalmagan holda qolib ketadi.

Agar savolga to'g'ri javob topilsa, yulduzcha kattalashadi. Agar javob noto'g'ri bo'lsa, yulduzcha yo'q bo'ladi. Bundan tashqari o'yinda "yordam" qismi ham mavjud bo'lib, agar o'quvchi shu qismni tanlasi ekranda shaxs-son qo'shimchalarining birlik va ko'plik qismlarga ajratilgan jadval paydo bo'ladi. Ushbu jadval orqali o'quvchilar qo'shimchalarni yodga olib olishlari mumkin bo'ladi.

Bu o'yin orqali o'quvchilarda shaxs-son qo'chimchalarini birlik hamda ko'plik qismlariga to'g'ri ajrata olish ko'nikmasi shakllantiriladi.

Yuqorida keltirilgan o'yindan tashqari birlik ham ko'plik shakllarni yanada chuqur o'zlashtira olish uchun quyidagi o'yinli taqdimotdan ham foydalanishimiz mumkin:

Ushbu metodda olmalarga shaxs-son qo'shimchalari yozilgan bo'lib, ularni birlik hamda ko'plik deb nomlangan savatchalarga o'z guruhlariga moslagan holda joylash zarur bo'ladi. Bu metod orqali qo'shimchalarni birlik hamda ko'plik qismlarga ajratish ko'nikmasi shakllanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jumayev. M. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm ziyo. - 2013.
2. N.Abdurahmonova., L.O'rino boyeva. 2-sinf matematika darsligi. – Toshkent: Yangiyo'l Poligraf Servis. 2018. To'rtinchchi nashr.
3. N.U.Bikayeva., K.M.Girfanova. 4-sinf matematika darsligi. – Toshkent: O'qituvchi. 2020. Beshinchchi nashr.
4. Ona tili (maktab o'quvchilari uchun). Qomus. –T.: Yangi asr avlod. 2010. Mualliflar

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI¹⁰¹

30-OKTABR

ANDIJON,2024

jamoasi. 267 bet.

5. Ona tili va o‘qish savodxonligi. darslik 1- sinf uchun. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Qurbonov, Shokir Tursun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021 yil.
6. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism, darslik 2- sinf uchun. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa’dullo Qurbonov, Shokir Tursun. – Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2021 yil. – 5 bet.
7. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, K. Qosimova, S. Fuzailov, A. Ne’matova Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Ooshkent – 2018
8. Onikov L.A., Shishlin N.V. Qisqacha siyosiy lug‘at. –T. O‘zbekiston. 1983. 6-bet.